

Gulchekhra Rakhimova Sobirjonovna

*Toshkent Turin politexnika universiteti Menejment, iqtisod va Gumanitar fanlar bo'limi Tarix fanlari doktori (DSc) rakhimova.80@bk.ru*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarixiy manbalarni o'rganishda Alisher Navoiyning asarlaridan foydalanish va ulardagi ma'lumotlarda tarixiy shaxslarni yoritish usullariga bag'ishlangan. Jumladan, Alisher Navoiy davridagi tarixiy voqeliklar va tarixiy obidalarining bunyod etilishiga oid manbalarni o'rganilishi tarixiy tadqiqotlarni yoritishda muhim manba ekanligi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, tarix, manbalar, tarixiy shaxslar, voqealar, xon qarorlari, obidalar.

Bugungi kun tarixiy tadqiqotlarda alisher Navoiyning asarlaridan foydalanish tarixiy manbalarni rivojlantirishda muhim manba hisoblanadi. Tarixshunoslikda Alisher Navoiy ijodini o'rganish besh yuz yildan ortiq tarixga ega bo'lib, bu davr mobaynida Sharq va G'arb mamlakatlarida minglab ilmiy asarlar yaratildi hamda ulug' shoir va mutafakkir ilmiy-ijodiy merosining jaxon madaniyati tarixidagi o'rni yukori baholandi.

Alisher Navoiyning betakror tarixiy asarlari qatorida tarixiy-nasriy asarlari ham jahon madaniyati va adabiyotining buyuk obidalarini berildi. Jumladan, Alisher Navoiyning nasriy-tarixiy asarlarida qadimgi davrda Sharkda kechgan tarixiy jarayonlar ulug' xonlar va tarixiy shaxslar yashagan davrning voqeligi va ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarini tahlil etilgan. Masalan, "Tarixi anbiyo va hukamo", "Tarixi muluki Ajam" kabi asarlaridagi tarixiy voqea-hodisalar va shaxslarning tasviri, ulardagi obrazlar va timsollar tizimini yoritishda tarixiy tadqiqotlarning rivojlanishida asosli ma'lumotlar yoritilgan.

Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" hamda "Tarixi muluki Ajam" asarlarining yaratilishi ma'lum tarixiy davrlar va jarayonlar bilan bog'lik [Pardaeva, 2018:12]. Masalan, «Tarixi anbiyo va hukamo», «Tarixi muluki Ajam» - «Arab bo'lmagan musulmon mamlakatlari tarixi» asarlarida Payg'ambarlar tarixi, olimlar va tarixiy voqeliklar haqida hikoyalari shu davrning jamiyatidagi o'zgarishlari, diniy tortishuvlar, diniy qarashlarning turli tumanligi va turli dinlarning kelib chiqishi haqida ma'lumotlar joylangan.

Tarixda ilk dinlarni paydo bo'lishidagi iudaizm, nasroniylik va islom dinining paydo bo'lishi bilan bog'langan ma'lumotlar yoritib berilgan.

Payg'ambarlarning hayoti, urf-odatlarini jamiyatdagi turli qonunlar va turli urug'-qabilalarning o'rtasidagi nozolari kabi ma'lumotlar tarix fanidagi qadimgi tarixni yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Andin Ajamu Arab alamda

Yo'q misli Arab bila Ajamda [Alisher Navoiy. 2011:25]

Chun gulshani charx guluzori

Mag'rib siri tortti amori [Alisher Navoiy. 2011:36]

Ma'lumki, Navoiy 1483-1485 yillar orasida turkiy tildagi mashhur "Xamsa" asarini yaratish bilan Xuroson xukmdori va o'zining eng yaqin do'sti bo'lgan Husayn Boyqaroning yuksak iltifotiga sazovor bo'ladi. Navoiyning shox koshida oshib borayotgan maveq'

e'tibori Husayn Boyqaro saroyidagi bir guruh amaldorlarni tashvishga solib qo'yadi. Ular shohning adolatparvar amirini markazdan uzokka jo'natish yo'lini izlay boshlaydilar [Pardaeva, 2018:13]. Xuddi shu paytda, xazinaning bo'shab qolishi amirlarning g'arazli niyatlarini amalga oshirishlari uchun kulay sharoit yaratadi. Jamiyatda vazirlar o'rtasida nizolar va tarafkashliklar boshlanib ketadi.

Shox Jasrat bo'lub edi foniy,

Deb valiaxl o'ziga oni [Alisher Navoiy. 2011:207]

Ushbu holatlarda xonning tartiblarga loqaydligi davlatda tarqoqlik va xalq qo'zg'alonlarining boshlanib ketishiga olib keladi.

Xatto xon tomonidan vazirlarning tarafkashliklari o'z vorislarini ham ishonchsizliklariga sabab bo'la boshlaydi.

Lekin, Alisher Navoiy asarlarida ko'plab xonlarning sur'atlarini gavdalantirgan.

Jumladan, mazkur davrda rasm chizish taqiqlangan bo'lsada, tarixiy shaxslarning rasm va sur'atlari Alisher Navoiy asarlari ma'lumotlariga ko'ra gavdalantirilgan. Jumladan, Xusayn Bayqaroning sur'atlari ham shu jumladandir.



Sulton Husayn Boyqoro Xuroson muzofotida, ayniqsa, Xirotda diniy va madaniy-maishiy binolarni ko'plab qurdirdi. Bu qurilishlarning asosiy mutasaddiysi sifatida Alisher Navoiyni ko'rsatish joizdir. Shuningdek, shahanshohning yaqin kishilari hamda bek va amirlari o'z nomlarini abadiylashtirish maqsadida masjid, Madrasa, rabot, ko'prik, hammom va shunga o'xshash qurilishlar bilan shahar ko'rkini yanada jilolantirganlar.

Chunonchi, Sulton Husayn Boyqaro Gozurgoh yaqinida o'z nomiga Madrasa, Xirotda tashqarisida "Bog'i bayt ul-imon" va " Bog'i Hamsa oroyi" bog'larini barpo etgan. Sulton Badiuzzamon Mirzo nomi bilan ataluvchi "Madrasayi Badi'a" ham Sulton Husayn Boyqoro davrining ulkan obidalaridan biridir. Bu davrda ta'mirlangan Jome' masjidi ulkan binolardan bo'lib, 403 gumbazi, 130 ravoqi va 44 ustuni bo'lgan[3].

Ushub tarixiy ma'lumotlar Alisher Navoiyning asarlaridagi muhim ma'lumotlardir. Tarixiy obidalaridagi san'at asarlari va qurilish arxitekturalari Navoiy asarlarida batafsil yoritiladi.

Xulosa qilib aytganda Alisher Navoiy tarixiy shaxs sifatida tarixiy tadqiqotlarda nomlanadi, chunki, Alisher Navoiy o'z asarlarida tarixga xali nomi kirmagan va yo'qolib borayotgan tarixiy obidalarining tarixi va nomlarini saqlashda manbalarga boy muallifdir.

Uning asarlarida tarixiy obidalarning qurilishi, jamiyatdagi diniy tartiblar va urf-odatlarining talqin qilinishi tarixning yoritilishida asosiy ma'lumotlar resursi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Pardaeva N. Alisher Navoiy tarixiy badiiyati. Avtoref. ..diss.filologiya fanlari bo'yi.falsafa doktori–Samarqand. 2018. –B. 12.
2. Алишер Навоий. То'ла асарлар то'плами. –Тошкент. 2011. –Б. 25.
3. Алишер Навоий. То'ла асарлар то'плами. –Тошкент. 2011. –Б. 36.
4. Алишер Навоий. То'ла асарлар то'плами. –Тошкент. 2011. –Б. 207
5. Pardaeva N. Alisher Navoiy tarixiy badiiyati. Avtoref. ..diss.filologiya fanlari bo'yi.falsafa doktori–Samarqand. 2018. –B. 13.
6. <https://e-tarix.uz/shaxslar/638-maqola.htm>